

**“OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI O‘QITISHDA  
ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLAOGIYALARINING AHAMYATI”**

*Mamatov Dilmurod Narmurodovich*

*PhD Buxoro davlat pedagogika instituti.*

*Egamqulova Fotima Tuygun qizi*

*Buxoro viloyat Jondor tuma 20 - son maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Buxoro innovatsiyalar  
universiteti 2- bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnika oliv ta’lim tashkilotlarida fizika fanini talabalarga o‘qitishda innovatsion ta’lim, axborot kommunikatsion loyihalash texnologiyalardan foydalanish istiqbollari haqida bo‘lib, unda ta’lim vositalari va ularni ta’lim jarayonida qo’llash imkoniyatlari, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning hozirgi kundagi rivojlanishi va ularni tadbipi hamda axborot-kommunikatsion texnologiya vositalaridan ta’lim jarayonida foydalanishning loyihalash texnologiyalaridan foydalanishning samarali yo’llari haqida fikr yuritilgan

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiya, interaktiv, zamonaviy ta’lim texnologiyalar, axborot-kommunikativ, texnologiya

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldag‘i PF-4947-son farmoni 2020 yil 12 avgustdag‘i PQ-4805-son va “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021 yil 19 martdag‘i PQ-5032-son qarorlari. DTSlarining innovatsion ta’limga yo‘naltirilganligi uning maqsadli, ko‘p funksional, tarkibiy hamda mazmunli elementlar bilan belgilanadi. Ta’lim standartlari nafaqat o‘qitish mazmuni hamda taklif qilinayotgan ta’lim natijalarini to‘g‘rilaydi, balki mavjud axborot-kommunikatsion ta’lim muhiti sharoitida ushbu ko‘rsatkichlarga erishish kafolatlarini ham taminlab beradi. Shu nuqtai nazardan, yangi standartlarni tatbiq etish faqat uni amalga oshirishga innovatsion ta’limga yondashgan holda mumkin bo‘ladi va uning dastlabki sharti faqatgina ushbu maqsadlarga erishishga qaratilgan innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratildi.

B.Ziyomuxamedov va Sh.Abdullayevalarning fikrlariga ko‘ra innovatsion texnologiyalar o‘qitish jarayonida yuqori malakali rakobatbardosh o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omilkorliklarini shakllantirish, metodik mahoratini kutarish, o‘qituvchi-pedagoglarni zamonaviy pedagogik texnologiyallar bilan qurollantirish omili bo‘lib qolmoqda deb ta’kidladilar[6].

Talabalarning kasbga oid qobiliyatini shakllantirish hamda takomillashtirishda innovatsion ta’lim texnologiyalardan uyg‘unlashgan holda foydalanish o‘ziga xos ilmiy-pedagogik afzalliliklarga ega hisoblanib, ularni mantiqiy fikrlashga, fanga ilmiy hamda ijodiy yondashishga o‘rgatadi, o‘quv mavzularini o‘zlashtirishni osonlashtiradi, ilmiy dunyoqarashning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, fizikadan nazariy-amaliy bilimlarni mustahkam egallahsga yordamlashadi, his-tuyg‘ularga ta’sir etgan holda mashaqqatli aqliy faoliyat natijasida fanga hamda kasbga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘linadi. Shu sababli,

Loyiha dastur, modellashtirish, algoritmlashtirish, darsning texnologik xaritasi va boshqa ko‘rinishda (savollar to‘plami, tarqatma materiallar, adabiyotlar ro‘yxati va boshqalar) amaliyotda namoyon bo‘ladi. Loyihaning asosini uslubiy-ilmiy, ijodiy, interfaol xarakterga ega faraz, g‘oya hamda fikrlar tashkillashtiradi. Loyihalash esa boshlang‘ich ma’lumot hamda aniq faktlarga asoslanib, kutilgan ta’lim natijalarni algoritmlash, modellashtirish, bashoratlash, rejalashtirish, taxmin qilish, tashhislash, soddalashtirish orqali pedagogik-ilmiy faoliyat yoki fizik ob’ekt, hodisa hamda jarayon mazmuni uning ahamiyatini yaratish hamda amaliyotga joriy qilishga qaratilgan uslubiy-amaliy harakat hisoblanadi.

Talabalar o‘qitish jarayonini rejalashtirish hamda loyihalash qator ta’limiy qonuniyatlarni o‘z tarkibiga oladi:

- 1) Loyihalash maqsadga muvofiq o‘qitsh jarayoni samaradorligi ta’milanadi (ta’limning texnologik jarayoni, uni nazorat etish hamda shakl, boshqarish, usul, o‘qitishning texnik vositasi, ma’lumot bilan ta’minalash, iqtisodiy-ijtimoiy ta’mint);
- 2) talabaning individual (amaliy hamda eksperimental) ishlash xususiyatlariga bog‘liq holda ta’limning yuqorida qayd etilgan texnologik vositalaridan foydalaniadi;
- 3) pedagogning individual o‘qitish hamda o‘rgatish uslubiga muvofiq loyihalashning ta’limiy strategiyalari tanlanadi;
- 4) Teskari aloqa (o‘qituvchi (sub’ekt) hamda talaba (sub’ekt)) loyihalashning hamma omillar (yangi material mazmuni, hajmi, maqsadi hamda vazifalari) samaradorligiga bog‘liq.

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta’lim mazmunini, kutilayotgan natija maqsadlaridan kelib chiqgan holda to‘g‘ri ta’limiy jihatdan belgilash, shakllari, o‘qitish usullari, texnik qurilma hamda vositalarini ta’lim shakliga qarab to‘g‘ri tanlash, talabaning fizikadan amaliy ko‘nikma, nazariy bilim hamda eksperiment bajara olish malaklarini nazorat qilish hamda baholashning aniq mezonlarini meyoriy-huquqiy hujjatlar asosida yaratish, mashg‘ulotlari (ma’ruza darsi, amaliy hamda laboratoriya)ga ajratilgan vaqt ichida yuqorida qayd etilganlarni to‘g‘ri amalga oshirish hamda mavzularning bir-biri bilan uyg‘unlashuvi, uzviyliliga e’tiborni qaratish ta’limiy maqsadga muvofiq sanaladi.

**References:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y, 6-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2021 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2020 yil 12 avgustdagи PQ-4805-son qarori.
4. Ahmadjanov O.I. Oliy texnika o‘quv yurtlarida talabalar o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari. Ped.fan.dokt...diss.avtoref.–Toshkent, 1995. -35 b.

